

## **GINKGO BILOBA O`SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI**

### **BOTANICAL DESCRIPTION, DISTRIBUTION AND SIGNIFICANCE OF GINKGO BILOBA PLANT**

#### **БОТАНИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ РАСТЕНИЯ ГИНКО БИЛОБА**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo`nalishi  
202-guruh talabasi **Xaydarova Nodirabonu Xayrullo qizi**  
101-guruh talabasi **O`ktamjonova Farzona Ziyoriddin qizi**

**Annotatsiya:** Ginkgo biloba (Ginkgo biloba) o`simligi — qadimiy va noyob daraxt turi bo`lib, bu o`simlik bugungi kunda mavjud bo`lgan yagona turidir. O`simlikning botanika tavsifi, tarqalishi va ahamiyati uning biologik xususiyatlari, ekosistemdagi roli hamda tibbiyotda ishlatalishi bilan bog`liqdir. Ginkgo biloba nafaqat o`zining tarixiy va ekologik ahamiyati bilan, balki farmatsevtik sohada ham katta o`rin tutadi. Ushbu maqolada Ginkgo bilobaning botanika tavsifi, dunyo bo`ylab tarqalishi va uning turli sohalardagi ahamiyati haqida bat afsil ma'lumotlar keltiriladi.

**Abstract:** Ginkgo biloba (Ginkgo biloba) plant is an ancient and rare tree species, and this plant is the only species that exists today. The botanical description, distribution and importance of the plant is related to its biological properties, role in the ecosystem and its use in medicine. Ginkgo biloba occupies a great place not only in its historical and ecological importance, but also in the pharmaceutical field. This article provides detailed information about Ginkgo biloba's botanical description, worldwide distribution, and its importance in various fields.

**Аннотация:** Растение Гинкго двулопастный (Ginkgo biloba) — древний и редкий вид деревьев, и это растение — единственный вид, существующий сегодня. Ботаническое описание, распространение и значение растения связано с его биологическими свойствами, ролью в экосистеме и использованием в медицине. Гинкго двулопастный занимает большое место не только по своему историческому и экологическому значению, но и в фармацевтической сфере. В этой статье представлена подробная информация

о ботаническом описании гинкго двулопастного, его распространении по всему миру и его значении в различных областях.

**Kalit so‘zlar:** ekosistema, farmatsevtika, tibbiyat, tarixiy o‘simlik, genetik xilma-xillik, biologik xilma-xillik, antioksidantlar, fotosintez.

**Key words:** ecosystem, pharmaceuticals, medicine, historical plant, genetic diversity, biological diversity, antioxidants, photosynthesis.

**Ключевые слова:** экосистема, фармацевтика, медицина, историческое растение, генетическое разнообразие, биологическое разнообразие, антиоксиданты, фотосинтез.

Ginkgo biloba, dunyoda faqat bitta turi mavjud bo‘lgan o‘simlik bo‘lib, ginkgo o‘simliklar oilasining yagona vakili hisoblanadi. Bu o‘simlik qadimiy tarixga ega bo‘lib, 250 million yildan ko‘proq vaqt avval paydo bo‘lgan. Ginkgo biloba o‘simligi o‘tmishda keng tarqalgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda tabiiy sharoitda faqatgina Osiyo, xususan Xitoy va Yaponiya hududlarida uchraydi. Ginkgo bilobaning tarixi, morfologiyasi va ekologiyasi haqida ma’lumotlar faqatgina biologiya va botanika sohalarida emas, balki tibbiyat, ekologiya va tarixshunoslikda ham keng o‘rganilgan. Ginkgo biloba — ikki uyli, ya’ni erkak va urg‘ochi daraxtlardan tashkil topgan o‘simlik. U daraxt shaklida bo‘lib, balandligi 20-35 metrga yetishi mumkin, ba’zan 50-60 metr balandlikka ham yetadi. Daraxtning yoshi va o’sish sur’ati juda sekin, ammo uzoq umr ko‘rvuchi xususiyatga ega. Ginkgo biloba o‘simliklari 1000 yil va undan ko‘proq vaqt davomida yashashi mumkin. Ginkgo bilobaning barglari keng, yozda yashil rangda bo‘ladi va kuzda sariqqa buranadi. Yaproqlari o‘zgacha shaklga ega bo‘lib, ikki yarmdan tashkil topgan yelpig‘ichga o‘xshash va yozda xiralashmaydi. Yaproqlarining bunday tuzilishi o‘simlikni boshqa daraxtlardan farqlantiradi. Ginkgo tarkibida kuchli antioksidantlar, flavonoidlar, terpenoidlar, va boshqa biologik faol moddalar mavjud.

Tabiiy tarqalgan joyi Xitoyning ma’lum hududlarida bo‘lishiga qaramay, Ginkgo biloba hozirda butun dunyoda, ayniqsa shahar atrofida, bog‘larda va ko‘cha chetlarida ekilgan. Bu daraxtning sovuqqa va ifloslangan havoga chidamliligi uni shahar muhitiga juda moslashtiradi. Ginkgo biloba o‘simligi tabiiy sharoitda faqatgina Xitoy, Yaponiya va Koreya hududlarida uchraydi. Shu bilan birga, tarixan ginkgo o‘simligi o‘tmishda boshqa hududlarda ham keng tarqalgan bo‘lib, bugungi

kunda uning tarqalishi cheklangan. Ginkgo biloba o'simligining tabiiy yashash joylari toralashib, hozirgi kunda u asosan odamlar tomonidan madaniy tarzda ekiladi va qishloq xo'jaligida yetishtiriladi. Xitoyda ginkgo daraxtlari asrlar davomida madaniy o'simlik sifatida etishtirilgan va ayniqsa tabiiy dori vositalarida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, ginkgo o'simligi boshqa mamlakatlarda, masalan, Evropa va Shimoliy Amerikada bog'larda dekorativ o'simlik sifatida ekiladi. Bu o'simlik mo'tadil iqlim sharoitiga yaxshi moslashadi va qishning sovuqiga ham chidamli. Ginkgo biloba o'simligi ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ginkgo daraxtlari uzoq umr ko'rishi va tez o'sishi bilan o'z atrofidagi ekosistemi uchun muhim rol o'ynaydi. Ular shaharlandirish jarayonida havo sifatini yaxshilash, tuproqni mustahkamlash va biologik xilma-xillikni ta'minlashda yordam beradi.

Ginkgo biloba o'simligining ahamiyati ko'p qirrali:

1. Ekologik ahamiyati: Ginkgo daraxtlari atmosferani tozalashga yordam beradi, karbonat angidridni so'rib olib, kislород чиқаради. Shuningdek, ularning soya berishi va havo sifatini yaxshilash xususiyati bor.
2. Salomatlikka foydasi: Ginkgo bilobaning mevalari va yaproqlaridan tayyorlanadigan preparatlar qon aylanishini yaxshilash, xotirani mustahkamlash va bosh miya faoliyatini yaxshilash xususiyatiga ega. Shu sababli, u ko'plab dorivor preparatlarda qo'llaniladi.
3. Tarixiy va madaniy ahamiyati: Ginkgo daraxtlari Xitoyda ming yillar davomida muqaddas daraxtlar sifatida e'tirof etilgan. Ular tinchlik va uzoq umr ramzilaridan biri hisoblanadi.

Ginkgo biloba o'simligining barglari va urug'lari xalq tibbiyotida uzoq vaqt davomida ishlatilgan. Bugungi kunda ginkgo ekstrakti ko'plab dori vositalarining tarkibiga kiradi va ularni xotira va aqli faoliyatni yaxshilash, qon aylanishini yaxshilash, oksidlanishga qarshi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ishlatish mumkin. Shuningdek, ginkgo ekstrakti Altsgeymen kasalligi kabi nevrologik kasalliklarni davolashda yordam beradi. Ginkgo daraxtlari atmosferani tozalashga yordam beradi, karbonat angidridni so'rib olib, kislород чиқаради. Shuningdek, ularning soya berishi va havo sifatini yaxshilash xususiyati bor. Ginkgo biloba o'simligi o'zining noyob va chiroyli tashqi ko'rinishi bilan bog'larda, xiyobonlarda va jamoat joylarida keng qo'llaniladi. Ginkgo daraxtining barglari kuzda oltin sariq rangga bo'yilib, sezilarli darajada chiroyli va diqqatni tortadi. Ginkgo biloba

o‘zining noyob xususiyatlari, shahar muhitiga moslashuvchanligi va salomatlikka foydalari bilan mashhur. Uning uzoq umr ko‘rvuchi va ekologik jihatdan foydali xususiyatlari uni butun dunyo bo‘ylab qadrlashga sabab bo‘ladi. Ginkgo daraxtlari nafaqat muhitni yaxshilashga, balki insonlar hayot sifatini oshirishga ham hissa qo‘shadi.

Xulosa: Ginkgo biloba o‘simligi nafaqat ekologik, balki tibbiy va madaniy ahamiyatga ega qadimiy daraxtdir. Uning botanik tavsifi, tarqalishi va turli sohalarda qo‘llanilishi o‘simlikni dunyodagi eng muhim va qadimiy organizmlardan biri sifatida ajratib turadi. Ginkgo biloba o‘simligi, uning tibbiy xususiyatlari va ekologik roli bilan insoniyatga katta foyda keltirishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O`E.Xo`janazarov, X.Mavlonov, J.S.Sadinov. Botanika O`simliklar Sistematisasi(2013) Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. C.M.Mustafayev “Botanika”. Toshkent “O'zbekiston” 2024
3. “O`simliklar ensiklopediyasi”